

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA “XIZR” SO‘ZI BILAN BOG‘LIQ SHE‘RIY  
SAN‘ATLARNING QO‘LLANILISHI

Axmedov Salohiddin Sahobiddin o‘g‘li

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi.

[salohiddinaxmedov19941711@gmail.com](mailto:salohiddinaxmedov19941711@gmail.com) +99877-707-94-01

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20157877>

“Xizr” so‘zi Sharqda—musulmon mamlakatlarida tarqalgan afsonaviy avliyoning ismi hisoblanadi. Qur‘oni Karimda u “Ollohning bandasi” (Qur‘on, 211) nomi bilan zikr etilsa-da, ismi ko‘rsatilmaydi. Turkiy yodnomalarda Yassaviy asarlaridan boshlab uchraydi:

Xizr bilan suhbatlik, Ilyos birla ulfatlik,

Haq qoshinda hurmatlik shayxim Ahmad Yassaviy (Yassaviy, 195).

“Qissasi Rabg‘uziy” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida, Qur‘oni Karimning Qahr surasi (60-82-oyatlar)da Muso payg‘ambar va Xizr uchrashuvi keltiriladi. Unda Xizrning Musoga nisbatan ilmiyroq ekanligi hikoya qilinadi. Yodnomalarda Xizr so‘zi turli xil she‘riy san‘atlarni hosil qilgan:

1. Xizr bilan o‘zakdosh **axzar** so‘zlari bir baytda qo‘llanib, ishtiyoq san‘atini yuzaga keltirgan:

Qo‘nub qay shajar ura **axzar** qilib,

Ne axzarki, Xizr payg‘ambar qilib.<sup>i</sup>

Qay daraxtga qo‘nsalar u ko‘m-ko‘k bo‘lar, go‘yo ularga Xizr payg‘ambar qo‘ngandek tuyulardi.

Xirqasi **axzaru** aso **axzar**,

Go‘yo ul erdi Xizr payg‘ambar.<sup>ii</sup>

2. Xizr obrazi ko‘plab **tashbeh** va istioralar hosil qiladi:

Demay har sarv, balkim har giyohi,

Bo‘lub ishratqa anda Xizr rohi.<sup>iii</sup>

Shoir baytda sarv daraxtlarigina emas, balki har bir ko‘kat ayshu ishtatqa yo‘l ko‘rsatuvchidir degan fikrni ifodalagan, ya‘ni Xizr yo‘l ko‘rsatuvchi ma‘nosida qo‘llanilgan.

Xattini har sori hayot ahli bil,

Xizrlar o‘lg‘on zulmat ahli bil.<sup>iv</sup>

Birinchi baytda, mo‘ylab tuklarining har bittasi hayot maysasiga, aniqrog‘i Xizrga o‘xshatilgan bo‘lsa, ikkinchi baytda ma‘shuqa terlaganda uning lablaridagi mayin tuklar (Xizr) obi hayvon ichida qolgan g‘avvosga o‘xshatilgan. Shoir **tashbehni tanosib san‘ati orqali** yaratgan.

3. Xizr mangu tirik hisoblansa-da, yodnomalarda voqea yoki biror narsani bo‘rttirib **mubolag‘ali** qilib, ko‘rsatish maqsadida “o‘ldiriladi”.

Bari olam yuzin tutib zulmat,

Lek mumkin yo‘q anda obi hayot.

Ming Xizr anda gar makon aylab,

Borisig‘a haloki jon aylab.<sup>v</sup>

Olam yuzini zulmat qoplab olgan va u yerda zulmatda bo‘ladigan obi hayot yo‘q. Minglab Xizr bu yerda makon qilganda ham halok bo‘lar edi. Shoir “Xizr” so‘zi orqali 2 (ikki) **mubolag‘ani** amalga oshirilgan: Xizr mingta emas, bitta; Xizr hech qachon o‘lmaydi.

4. Jiddiy e`tibor berilsa, “**Xizr**” so`zining yodnomalarda o`z ma`nosidan tashqari ma`nolarda ham qo`llanilganligiga duch kelamiz. Bu so`z o`yini yoki ilmda **iyhom san`ati** deyiladi.

**Xizr**dek ul qavm tutub elga qo`l,  
Ko`rguzibon manzila maqsadg`a yo`l.  
Moni` o`lub g`ayrati ogohlik,  
**Xizrg`a** ham qilg`ali hamrohlik.  
Zulmat alar o`tig`a bir dudi oh,  
Yo`llarida **Xizr** bir axzar giyoh.<sup>vi</sup>

Bu misoldagi birinchi va ikkinchi **Xizr** o`z ma`nosida, uchinchi “**Xizr**” so`zi “yashil” ma`nosida qo`llanilgan. “Sab`ai sayyor” dostonidan olingan quyidagi misolda ham **Xizr** so`zi “**yashil, ko`m-ko`k**” ma`nosida ishlatilgan:

Dedilar: Kishvari durur dilkash,  
Oti ham Shahrizabz erur ham kash.  
**Xizr** monand sabzidan rangi,  
Sabzai suyi ko`zgusi zangi.<sup>vii</sup>

5. “**Xizr**” so`zi yodnomalardagi mavzuni chiroyli asoslash uchun muhim vosita bo`lib kelgan va bu **husni ta`lil san`atini** hosil qilgan.

Xar arokim, la`lin etib xandanok,  
**Xizr** suyidin qilib elni halok.<sup>viii</sup>

Shoir yoshlikni tasvirlar ekan, uni quydagicha asoslaydi: Mo`ylab orasidagi la`li lablar kulib, o`zining **Xizr** suvi bilan oshiqnlarni halok qiladi. La`li lablari **Xizr** suvining oshiqnlarni o`ldirishi ma`shuqasining husnini chiroyli asoslashga manbadir.

6. **Xizr** so`zi yodnomalardagi fikrni kuchaytirish va oshirish maqsadida qo`llanilgan va **ruju san`atini** hosil qilgan:

Navoiy sumur bodai jonfizoy,  
Ki, qolmish ne Malu, ne Xoqon, ne Roy.  
Bu mani xati davri sog`ardadur,  
Alardin dema, so`z Skandardadur.  
Yo`q, Iskandari olamoroda bahs,  
Erur bilki **Xizru** Masihoda bahs.<sup>ix</sup>

Navoiy jon bag`ishlovchi bodani sumur, bu dunyoda na Malu, na Xoqon, na Roy qoladi.

Bu mazmun may qadahining davrasida yozilmishdir. Bunga qaraganda, endigi so`z yuqoridagilarda emas, balki **Xizr** bilan Iso Masihoga qarashli bo`lsa kerak.

7. **Xizr** so`zi yodnomalarda undalma sifatida qo`llanilgan va **nido san`atini** hosil qilgan:

Mangaki do`st kerak, ey **Xizr**, yutarman qon,  
Sengaki umrdurur kom, obi hayvon yut.<sup>x</sup>

Shoirilar Xizirga murojaat qilishadi va u “obi hayvon”dan ma`shuqani, do`stni ustun qo`yishadi, chunki “Xizrning hayvon suyi—abadiy umr sharbatini ichirishdek har qanday gunohdan xolis, farishta sifat zotlar orasida kamdan-kam tole` egasiga munosib ko`rgan muruvvatni ham yorning diydorisiz ma`nosini, qadrini yo`qotadi”.

8. “**Xizr**” so`zi yodnomalarda muhim badiiy vosita sifatida boshqa she`riy san`atlarni ham hosil qilgan.

La`li shavqidin ko`zu ko`ngluma ashku ahdur,  
Yo zuloli **Xizr** ila anfosi ruhullohdur.<sup>xi</sup>

Bu baytda “**Xizr**—ko`z—ashk—zulol” hamda “ko`ngul—oh—anfosi ruhulloh” so`zlari **laf** va **nashr** san`atini hosil qilgan.

E`tibor qilinsa, bu san`atga aloqador so`zlar tizilgan: koz—ashk—zulol—**Xizr**.

Gah munga, ul qarinu goh anga,

Xud bu ikkisi **Xizr** roh anga.<sup>xii</sup>

Shoir Sa`dga yo`l ko`rsatuvchilik qilgan ikki kishini Xizrga qiyos qilgan va “Xizr hamrohing bo`lsun”, -degan maqoldan ijodiy foydalanib **irsoli masal** san`atini qo`llagan.

Xullas, Xizir so`zi bilan bog`liq bo`lgan she`ry san`atlarga yana ham misollar keltirish mumkin. Alisher Navoiyning hali tesha tegmagan, ochilmagan qirralari juda ko`p. Bu yuqorida tahlil qilingan she`riy san`atlar daryodan bir tomchi, xolos.

Biz keying ish va izlanishlarimizda buyuk bobokolonimiz—Alisher Navoiyning betakror ijodiga hali o`rganilmagan sir—sinoatlarni ochishda ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib boramiz degan umiddamiz.

- 
1. (Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. O`n birinchi tom. T., 1993. 311-bet)
  2. (Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. O`n birinchi tom. T., 1992. 21-bet).
  3. (Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Sakkizinchi tom. T., 1991. 92-bet.)
  4. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. Yettinchi tom. T., 1991. 196-bet.)
  5. (Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor. O`ninchi tom. T., 1992. 116-bet.)
  6. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. Yettinchi tom. T., 1991. 140-bet.)
  7. (Alisher Navoiy. Sab`bai sayyor. O`ninchi tom. T., 1992. 205-bet)
  8. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. Yettinchi tom. T., 1991. 281-bet.)
  9. (Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. O`n birinchi tom. T., 1993. 222-bet.)
  10. (Alisher Navoiy. Navodirush shabob. MAT. T., 1989. 64-bet.)
  11. (Alisher Navoiy. Favoyidul kibar. Oltinchi tom. T., 1990. 126-bet.)
  12. (Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor. O`ninchi tom. T., 1992. 209-bet.)